

**OSSURIYA PODSHOLIGI MADANIYATI: AHOLJNING DINIY  
E'TIQODLARI**

**TOSHMAMATOVA DILOROM ABDURASHID QIZI**

[Toshmamatovadilorom6@gmail.com](mailto:Toshmamatovadilorom6@gmail.com)

[Tel:+998930780703](tel:+998930780703)

**NORTO'RAYEVA TO'XTABIBI SAYRIDDIN QIZI**

[norturayevatuxtabibi@gmail.com](mailto:norturayevatuxtabibi@gmail.com)

[Tel:+998930410543](tel:+998930410543)

**DENOV TADBIRKORLIK VA PEDOGOGIKA INSTITUTI TADBIRKORLIK  
VA BOSHQARUV FAKULTETI TALABALARI**

**ANNOTATSIYA:** *Ossuriya – Mesopotamiyaning eng qadimgi quldorlik davlatlaridan biri hisoblanadi. Ushbu maqolada Qadimgi Ossuriya davlatining tashkil topish jarayoniga qisqacha to'xtalib o'tiladi. Qadimgi Ossuriyanning madaniy taraqqiyoti, aholining diniy e'tiqodlariga alohida e'tibor qaratgan holda ushbu davlat tarixini atroflicha yoritishga harakat qilindi.*

**KALIT SO'ZLAR:** *Mesopotamiya, Ashshur, Ashshurbanipal, Tukulti-Ninurta, lamassum, Hazannu, yosh davlatlar.*

**АННОТАЦИЯ:** *Ассирия – одно из древнейших рабовладельческих государств Месопотамии. В этой статье будет кратко рассмотрен процесс создания Древнего Ассирийского государства. Культурное развитие древней Ассирии, уделяя особое внимание религиозным верованиям населения, стремилось всесторонне осветить историю этого государства.*

**КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА:** *М есопотамия, Ашур, Ашшурбанипал, Тукульти-Нинурта, ламассум, Хазанну, молодые государства.*

**ABSTRACT:** *Assyria is one of the oldest slave states of Mesopotamia. In three articles, the formation process of the Ancient Assyrian state will be briefly discussed. The cultural development of ancient Assyria, an attempt to comprehensively protect the history of this state, paying special attention to the*

*religious beliefs of the population.*

**KEY WORDS:** *Mesopotamia, Ashur, Ashshurbanipal, Tukulti-Ninurta, lamassum, Khazannu, young states.*

**KIRISH:** Ma'lumki Mesopotamiya hududida qadimdan bir qancha davlatlar tashkil topib, rivojlanishning turli bosqichlarini bosib o'tgan. Qadimgi Mesopotamiyadagi shunday yirik davlatlardan biri bu – Ossuriya podsholigi hisoblanadi. Ushbu davlat dastlab shimoliy Mesopotamiyaning sharqiy qismidagi uncha katta bo'lmagan hududda tashkil topgan edi. Qadimgi Ossuriya podsholigida bir qancha yirik shahar-davlatlar vujudga kelgan bo'lib, mil.avv. III ming yillik oxiri, II ming yillik boshlaridayoq o'ziga xos siyosiy tashkilotlari bo'lgan. Nineviya, Arbeli va Ashshur kabilar bularga misol bo'la oladi. Eng Qadimgi Ossuriyadagi davlatlar ko'p jihatdan Misr hamda Janubiy Mesopotamiyadagi nomlar va shahar-davlatlarga o'xshash bo'ganligini ko'rishimiz mumkin.

**ASOSIY QISM:** Ossuriya podsholigini olimlar turli davrlarga bo'lib o'rganadilar. Dastlab vujudga kelgan davr Eng Qadimgi Ossuriya podsholigi bo'lib, mil. Avv. XX –XVI asrlarni o'z ichiga oladi. Ossuriya tarixining ikkinchi davri O'rta Ossur podsholigi deb nomlanib, mil. Avv. XVI – XI asrlarni qamrab oladi. Ossuriya tarixining so'ngi davri mil. Avv. X – VII asrlarni o'z ichiga olib, Yangi podsholik, ayni paytda Buyuk Ossur saltanati deb nomlangan[1]

Osuriya katta-katta hududlarni bosib olishi natijasida hududlar, shaharlarda savdo-hunarmandchilik, dehqonchilik va chorvachilik rivojlanadi. Mamlakatda ko'plab yerlar o'zlashtirildi. Irrigatsiya va suv ta'minoti yaxshilanadi. Bog'dorchilik, uzumchilik va chorvachilik rivojlanishi uchun turtki boigan temir qurollar keng tarqaladi. Metallurgiya, qurolsozlik sohalari yuqori darajada taraqqiy qiladi. Talonchilik urushlardan olingan ko'plab oijalar va qullardan Osuriya shahar va qaPalarni qurishda keng foydalaniladi. Yangi shaharlar quriladi, jumladan, Kalxu shahri qayta tiklanadi, Osuriyaning yangi poytaxti «Tukulti-Ninurtu qal'asi» asir olingan tassit, xurrit va urartu qabilalari kuchi bilan qayta tiklangan.

Osuriya jamiyatini hukmron tabaqasi harbiylar, davlat xizmatidagi

zodagonlar, ibodatxona va savdo ahlidan iborat bo'lib, ular juda katta boylik va imtiyozlarga ega bo'lganlar va mavjud siyosiy hokimiyat bilan yaqin aloqada bo'lib, uni istilochilik siyosatini qo'lib-quvatlatganlar. Osuriya jamiyatining quyi tabaqalarini kichik ishlab chiqaruvchi yer egalari, jamoa a'zolari va hunarmandlar tashkil etgan. Ular xazinaga qishloq xo'jalik mahsulotlari, chorva molian va kumush bilan soliq tolaganlar. Ijtimoiy tizimning eng pastdagilar ko'chib kelganlar, asirlar va qullar qaram ishchilar toifasini tashkil qilganlar. Ular ko'p hollarda podsho xo'jaligida va ayrim hollarda ibodatxonalar, xususiy yerlarda ishlaganlar[2].

Ossuriyaning tarixiy ahamiyati, uning birinchi katta davla bo'lganligida va bu davlatning o'sha zamonda ma'lum bo'lgan dunyoni birlashtirishga intilganligidadir. Ossur podsholari tomonidan qo'yilgan bu vazifa munosabati bilan katta va kuchli armiya tuzish va harbiy texnikani yuksak darajada taraqqiy qildirish lozim bo'lgan. Ossur madaniyati ko'p jihatdan Bobil bilan qadimgi Shumerning madaniy me'rosi asosida ancha rivoj topgan. Ossur podshosi Ashshurbanipal saroyining harobalari ichidan topilgan uning mashhur kutubxonasi ossur madaniyati yuksak darajada bo'lganligini ko'rsatadi. Bu kutubxonadan juda ko'p miqdorda har xil diniy yozuvlar, adabiy asarlar va ilmiy matnlar topilgan edi. Bular orasida astronomiya kuzatishlariga oid yozuvlar, meditsina aphasia oid tekstlar, nihoyat grammatika va leksikaga oid yozuvlar shuningdek, eng keyingi lug'at va ensiklopediyalarning o'sha zamondagi dastlabki namunalari ayniqsa katta ahamiyatga egadir. Ossur xattotlari podshoning maxsus yo'l-yo'rig'iga muvofiq eng qadimgi yozuvlarning har turli asarlarini yig'ib, ulardan nusxa olib, ba'zan esa ularni qisman o'zgartirib, qadimgi Sharq xalqlari erishgan madaniy yutuqlarning g'oyat katta xazinasini bu kutubxonaga to'plaganlar. Ba'zi bir adabiy asarlar, chunonchi, tavba qasidalari yoki "ko'ngilni tasking topdiradigan nolalar" ossur adabiyotining yuksak darajada no'lganligini ko'rsatadi. Boshiga og'ir musibat tushgan, o'zini gunohkor va g'arib deb his qilgan odamning shaxsiy g'am-g'ussalarini qadimgi zamon shoiri bu nolalarda ustalik bilan aks ettirgan. Ossur podsholarning asosan istilochilik yurishlarini, shuningdek, ularning mamlakat ichkarisidagi faoliyatini tasvirlaydigan yilnomalari ossur adabiyotining original va

badiiy yuksak asarlari jumlasiga kiradi.

Ashshurbanipalning Kalax shahridagi va podsho Sagon II ning Dur-Shurrukin (hozirgi Xorsobod) shahridagi saroylarining harobalari ossr arxitekturasi Ossuriya gullab-yashnagan davrda na qadar yuksak bo'lganligini ravshan ko'rsatadi. Shumerliklarning binolariga o'xshab, Sargonning saroyi ham baland qilib ko'tarilgan tepalik ustiga solingan. Bu shohona saroyning 210 ta zali va 30 xovlisi bo'lib, ular nomutasosib (assimetrik) joylashtirilgan. Ossuriyadagi boshqa saroylar singari, bu saroy ham ossur arxitekturasi aynan namunasi bo'li, unda monumental haykallar ham, badiiy bo'rtma rassmlar ham, ziynatli ornamentlar ham ishlatilgan. Saroyga kiriladigan hashamatli darvozaning jkki tomonida podsho saroyining qo'riqlovchi muakkillar – “lamosum” ning juda katta haykallari o'rnatilgan, bu haykallar afsonalarda tasvirlanadigan bahaybat maxluq — odam boshli arslon yoki qanotli ho'kiz sifatida yasalgan. Ossur saroyidagi tantana zallarining devorlariga odatda saroy hayotiga, urush va ovga doir har xil manzaralarni tasvir qiluvchi bo'rtma rasmlar o'yganlar. Ashshurbanipalning bu shoxona va monumental naqshlari juda katta harbiy davlatni idora qiluvchi podshoning shon-shavlatini va Ossuriya qurolining naqadar qudratli ekanini ko'sarishi lozim bo'lgan. O'yib ishlangan bo'rtma rasmlar, xususan over qilish manzaralaridagi hayvonlarning suratlari ossur san'atining g'oyat yuksak namunalaridir.

Savdoning rivojlanishi va bir qancha qo'shni mamlakatlarning istilo qilinishi tufayli ossurlar Shumer-Bobil yozuvi, dini, adabiyoti va ob'ektiv bilimlarining dastlabki kurtaklarini qadimgi Sharq dunyosining barcha mamlakatlariga yoyganlar. Shunday qilib, qadimgi Babilning madaniy me'rosini qadimgi Sharqdagi ko'pchilik xalqlarning mulkiga aylantirganlar.

Ossuriyaliklar mission xat sistemasini, dinning o'ziga xos xususiyatlarini, adabiy asarlarini, san'atning xarakterli elementlarini va bir qancha ilmiy bilimlarni Mesopotamiyaning qadimgi xalqlaridan olganlar. Ossurlar ba'zi xudolar nomlari va ularga sig'nishni, ibodatxonaning arxeyiktura formasini va hatto qurilish materiali bo'lgan g'ishtni ham qadimgi Shumerdan olganlar. Eramizdan

avvalgi XIII asrda , ya'ni Ossur podshosi Tukulti-Ninurta I Bobilni zabt qilganidan keyin Bobilning Ossuriyaga madaniy ta'siri ayniqsa kuchaygan.

Ossurlar diniy adabiyotga doir keng yoyilgan asarlarni, xususan dunyoning yaratilishi haqidagi epic dostonlarni, Enlil va Marduk degan qadimgi xudolarga bag'ishlangan gimnlarni bobilliklardan olgan. Ossuriyaliklar uzunlik o'lchovi va tarozi sistemasini, davlat idorasini tashkil etishdagi ba'zi xususiyatlarni va Hammurapi davrida ishlangan huquqshunoslikning ko'pgina elementlarini Bobildan olganlar [3].

Fan taraqqiyotining muhim omili insonning xo'jalik faoliyati bo'ldi, chunki u o'lchovlar tizimini ishlab chiqishni, yer maydoni o'lchamlarini, don omborlari va sun'iy suv havzalari hajmini aniqlash usullarini bilishni, kanallar qazish, imoratlar qurish va hunarmandchilikda band bo'ladigan ishchi kuchini hisoblay olishni talab qilardi. Ana shu omillarning natijasi o'laroq miloddan avvalgi 3-ming yillik oxirida shumerbobil matematika si yaratildi. Bobil matematiklari shumerliklar ilgariroq yaratgan oltmishlik pozitsion hisob tizimidan keng foydalanishgan; shu tizim asosida turli hisoblash jadvallari: sonlarni bo'lish va ko'paytirish, sonlarning kvadratlari, kublari hamda kvadrat va kub ildizlari va boshqa jadvallarni tuzishgan (qarang Matematik mixxat matnlari). Bobilliklar kvadrat tenglamalarni yechishgan, „Pifagor teoremasi“ni va turli „Pifagor sonlari“ni topish usullarini (Pifagordan ming yildan ortiq vaqt ilgari) bilishgan; yer maydonlari, joylar, ayrim binolar tarxlarini chizishgan (lekin masshtabga rioya qilishmagan), fazoviy jismlarning hajmini aniqlay olishgan.

Bobilliklar kimyo borasida ham katta muvaffaqiyatlarga erishishgan, bu yutuqlar albatta sof amaliy tarzda bo'lgan. Miloddan avvalgi 2-ming yillikdan boshlab jez tayyorlashning ko'plab reseptlari saqlanib qolgan, sirkori sopol buyumlar va ularning rangbarang naqshlari ma'lum bo'lgan[4].

**XULOSA:** Yuqoridagi ma'lumotlardan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, qadimgi ossuriyaliklarning madaniyati qo'shni etnik guruhlardan ham, qadimgi davrlardan ham farq qiladi. Ko'pgina ossuriyaliklar hanuzgacha Sharqiy oromiy tilining akad tili ta'sirida bo'lgan turli dialektlarida gapiradi, o'qiydi va

yozadi, tilshunoslar tomonidan shimoliy-sharqiy neo-aramey va markaziy neo-aramey deb nomlanadi. Ular asosan suriyalik nasroniylikning bir qancha konfessiyalari tarafdorlaridir, xususan, Sharqning Qadimgi cherkovi, Sharqdagi Ossuriya cherkovi, Xaldey katolik cherkovi, Suriya katolik cherkovi va Suriya pravoslav cherkovi. Ba'zilar Ossuriya Elliginchi cherkovi va Ossuriya Evangelist cherkovining izdoshlari. Ozchilik dunyoviy yoki dinsizdir.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Abdujabbor Kabirov— “Qadimgi Sharq tarixi” – Toshkent. 2016-yil. “Tafakkur” nashriyoti.
2. R. Rajabov— “Qadimgi dunyo tarixi” – Toshkent. 2009-yil. “Fan va texnologiya” nashriyoti.
3. Vsevolod Avdiyev—“Qadimgi Sharq tarixi” – Toshkent. 1964-yil. O'zSSS “O'rta va oliy maktab” nashriyoti
4. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi— Toshkent. 2000-2005-yillar